

**O'SMIRLIK DAVRIDA KOMMUNIKATIV XUSUSIYATLARNI
O'ZIGA XOSLIGI****Jumanova Shohsanam Mamadali qizi***O'zbekiston Milliy Universiteti**Psixologiya(faoliyat turlari bo'yicha)**yo'nalishi 2-bosqich magistri*

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'smirlik davridagi bolalarda muloqot jarayonining shakllanishida yuz beradigan jarayonlar haqida fikr yuritiladi. O'smirda muloqot jarayoni bilan bog'liq xususiyatlar bayon etilgan. Nutqiy qobiliyat shakllanishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: O'smir, o'smirlik davri, muloqot, kommunikativ muloqot, psixika, temperament, xarakter, xarakter xususiyatlari, ijtimoiy muhit.

Bizga ma'lumki inson o'zining hayoti davomida ma'lum bir yosh davrlarini yashab o'tadi. Har bir yosh davri o'ziga xos betakrorlikka ega. Har bir yosh davrlari o'zida kechuvchi ma'lum bir xususiyatlar bilan boshqa yosh davrlaridan keskin farq qiladi. Yosh davrlari orasida o'smirlik davri o'ziga xos xarakter xususiyatlarini namoyon etishi, inson hayoti davomida katta hayotga dastlabki pillapoya bo'lishi bilan boshqa bir yosh savrlaridan keskin farq qiladi. Bu davr 11 yoshdan 15 yoshgacha bo'lgan muddatni o'z ichiga oladi. O'smirlik davrida organizmda tubdan o'zgarishlar yuz beradi. Organizmdagi barcha organlar siztemasi faoliyatida ham tubdan o'zgarishlar yuz beradi. Ularda bo'yni nisbatan tez o'sishi, tana vaznining ortishi, Ikkilamchi jinsiy belgilar namoyon bo'lishi bilan bir qatorda organizmning endokrin tizimida, jinsiy bezlar faoliyatida, qon aylanish tizimida, nafas olish tizimida organlar faoliyatida jadallashish kuzatiladi. Buning ta'sirida o'smir xulq-atvorida ham yaqqol o'zgarishlarni ko'rish mumkin. Katta maktab yoshi davridagi miyaning xususiyatlari bilan o'smirlik davridagi miya xususiyatlari bir-biridan keskin farq qiladi. Buni natijasida dunyoqarash, fikrlash va tafakkur jarayonlari ham o'smirlik davrida nisbatan jadallashgan davr hisoblanadi. Ilgari bilimlar shunchaki ko'r-ko'rona yodlangan bo'lsa endilikda o'smir ularni tahlil qila boshlaydi, mohiyatini tushinishga harakat qiladi. O'smirlik davrida o'qish bolalarning asosiy faoliyat turiga aylanadi. Organizmda barcha jarayonlar tezlashishini ko'rish mumkin.

O'smirlarda asosiy yetakchi faoliyat sifatida o'qish, mehnat hamda muloqot e'tirof etadilar. O'smirlar orasidagi muloqotning asosiy vazifasi bu- do'stlik, o'rtoqlik elementar normalarini egallashdir. O'smirlar muloqot jarayonida kattalarning qo'llab-quvvatlashiga ehtiyoj sezadilar[1]. O'smir o'zida bo'layotgan o'zgarishlar haqida to'liqroq bilishni xohlaydi, lekin bu haqida birinchi so'z boshlamaydi. Bunday holatda

ular ko'proq oila a'zolari bilan muloqotda bo'lishni xohlashadi va bu muloqot jarayonida o'smirlarda ularning fikrlarini qo'llab-quvvatlanishiga ehtiyoj sezadilar. Lekin buni ko'pchilik ota-onalar tushinib yetmaydilar yoki bolada o'smirlik davrida yuz beradigan jarayonlar haqida yetarlicha ma'lumotga ega bo'lmaydilar. Buning natijasida o'smirlar va ota-onalar, o'smirlar va pedagog xodimlar o'rtasida nizoli vaziyatlar vujudga kelishiga sabab bo'ladi. O'smirlar muloqot jarayonlarida fikrlari maqullanishini xohlaydilar, ota-onalar tomonidan o'smirlar haq-huquqlarini cheklash ularda agressivlikning kuchayishiga olib keladi. Birgalikdagi faoliyat o'smirga kattalarni yaxshiroq tushinishga yordam beradi.

O'smirlik davrida yozma, monologik nutq, o'qish malakalari jadallik bilan rivojlanadi. O'smir so'zlarning kelib chiqish tarixiga, ularning aniq mazmuni va mohiyatiga juda qiziqadi. U endi o'z nutqida yosh bola singari emas, balki katta odamlardek so'zlarni tanlab ishlatishga harakat qiladi[2]. O'z nutqlarini ham mazmunli bo'lishiga intiladilar. Endilikda o'smir muomala jarayonida so'zlarni ishlatish qonun-qoidalariga amal qila boshlaydi, kitoblardagi yozuvlarga, ota-onalarning nutqiga, o'quv jarayonida o'qituvchilar nutqiga diqqatini qarata boshlaydi. Atrofdagilarni nutqini tahlil qilib, o'z nutqini chiroyli qilishga harakat qiladi. Ma'kumki, o'smir yoshidagi bolalar taqlidchan bo'lishadi. Ular o'zlaridan kattalarga o'xshashga, muomila jarayonida kattalar tomonidan o'zlashtirgan so'zlarni muloqot jarayonida qo'llaydilar. Bu vaziyatni inobatga olgan holda o'smir bola tarbiyasidagi ota-onalardan va o'smir yoshdagi bolalar bilan ishlovchi pedagog xodimlardan o'smirlar bilan muloqot jarayonida nutqiy faoliyatlariga alohida e'tibor qaratishlari talab e'tiladi. O'smirlik davrida bolalarnin do'stlari bilan muloqot jarayoni ham alohida ahamiyat kasb etadi. O'quvchi nutqining o'sishida o'qituvchining nutqi ayniqsa katta ahamiyatga ega. O'qituvchining nutqi o'quvchi uchun namunali nutq hisoblanadi. Shu sababdan har bir fan o'qituvchisidan bolalar nutqini o'stirish bilan birga o'zi ham nutqining takomillashishi uchun to'xtovsiz va tinmay o'z ustida ishlashi tavsiya etiladi.

Ko'pgincha bolalarga uy topshiriqlarini bajarishda, she'r va qasidalarni yod olishda uni baland ovozda takrorlash, o'zlariga-o'zlari gapirib berish tavsiya etiladi. Bularning barchasi bola nutqining o'sishiga va jozibador bo'lishiga yordam beradi.

Bizga ma'lumki oila bolalar uchun dastlabki tarbiya, bilim, ko'nikma va malakalar o'zlashtiriladigan dargohdir. Bola hayoti davomida o'zlashtirilishi lozim bo'lgan asosiy odob-ahloq qoidalari ham dastlab oilada amalga oshiriladi. Insonning kelajakda yetuk shaxs sifatida shakllanishida albatta uning tarbiya olgan muhiti, olgan bilimlari muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ma'lumki farzand dunyoga kelar ekan unga eng birinchi yaqin inson ona hisoblanadi. Bola tug'ilgan kundan boshlab barcha hayotiy jarayonlarda onaga ma'naviy jihatdan ham bog'lanadi. Bola kichik yoshidan boshlab atrofni idrok qilishida ham onaning roli beqiyos hisoblanadi. Bola atrof-muhitni onasi orqali idrok qila boshlaydi. Nutqiy qobiliyatning shakllanishida ham

onalar tomonidan beriladigan nutqiy tarbiya kelajakda bolaning nutqiy faoliyatida va insonlar bilan kommunikativ munosabatga kirishishida o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmaydi. Bolada nutqiy qobiliyatni rivojlanishida onalar ham ma'lum bir takomillashgan nutqiy mahoratga ega ekanlik talab qilinadi.

O'smirlik davrida organizmdagi jarayonlar tezlashadi, nerv sistemasi, endokrin sistema, qon aylanish sistemasi, nafas olish sistemasi va barcha organlar tizimida hayotiy jarayonlarning jadallashishi kuzatilinadi. Albatta bu o'zgarishlar o'smir psixikasi va ruhiyati o'zgarishiga ham sabab bo'ladi. Ko'pincha o'smirlik yosh davrida bolalarda salbiy xususiyatlar ham paydo bo'lishini ko'rishimiz mumkin. Bu holatni organlar tizimida yuz berayotgan o'zgarishlar bilan tavsiflash mumkin. Bolalar nutqida jargonlar paydo bo'lish, jamiyat odob-ahloq qoidalariga mos bo'lmagan so'zlashuv uslublari ham paydo bo'ladi. Bu holat ham o'smirlik davriga xos bo'lgan bir xususiyatdir. Shuni unutmaslik lozimki bu vaqtinchalik holat. Keyinchalik bunday holatlar o'tib ketadi, lekin bu holatning oldi olinmasa bola nutqining odatiy qismiga aylanib qolishi ham kuzatilinadi. Ko'pincha ota-onalarda o'smirlik davriga xos xususiyatlardan bexabarlik, oilaviy munosabatlarda muomala jarayonlarida odob-ahloq qonun qoidalariga zid muomala jarayonlari yetakchilik qilsa bu boladagi kommunikativ muloqot jarayonlarida odatiy holga aylanib qolishi kabi holatlarga sabab bo'ladi. Bola bilan tarbiya jarayonida tashkil qilingan do'stona muhit o'smirning kattalarni yaxshiroq anglashiga, tushunishiga sabab bo'ladi. Farzandlar va ota-onalar o'rtasida ko'proq oilaviy vaqt o'tkazish, ko'proq farzandlarni tinglash tavsiya etiladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, oila ijtimoiy tarbiyaning dastlabki o'chog'i bo'lib, aynan ota-ona dastlabki ijtimoiy ko'nikmalarni bola ongiga singdiruvchi, uning irodasini charhlovchi insonlardir. Avvalo bolaga tarbiya berish jarayonida ota-onalarning o'zlari ham ma'lum bir bilimlarga ega bo'lishlari lozim. Maktab va oila o'rtasida aloqa munosabatlarini mavjudligi, hamkorlikda ishlash bolaning yaxshi xulq bilan voyaga yetishiga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. M.G.Davletshin Yosh va pedagogik psixologiya. O'quv qo'llanma. 2004-y 60-b
2. Z.Nishonova Rivojlantirish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya. 336-337b
3. V.Karimova Oila psixologiyasi. Toshkent-2007. 56-b